

## O'QUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN USULLAR

**Sultanova Venera Kalmuratovna**  
Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti  
[Umidasajp@gmail.com](mailto:Umidasajp@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'quvchilarning muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantiradigan usullar va pedagogik jarayonda o'ziga xos bu usullardan foydalanish natijasidagina kutilgan samaradorlikka erishish mumkinligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** muloqot, shaxs, metodlar, madaniyat, ijtimoiy, ko'nikma, shakllantirish, dialog, vosita, didaktik o'yin.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются методы, формирующие у учащихся навыки культуры общения, и то, что ожидаемая эффективность может быть достигнута только в результате использования конкретных методов в педагогическом процессе.

**Ключевые слова:** общение, личность, методы, культура, социальный, навык, формирование, диалог, средства, дидактическая игра.

### ABSTRACT

This article discusses the methods of forming students communication culture skills and emphasizes that the expected result can be achieved only as a result of using certain methods in the pedagogical process.

**Key words:** communication, personality, methods, culture, social, skill, formation, dialogue, means, didactic game.

### KIRISH

Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatda muloqotning mohiyati va uning jadallahuvi muntazam ortib bormoqda. Bu bir qator sabablar bilan bevosita bog'liqdir. Birinchi navbatda insoniyatning sanoatlashgan muloqotdan axborotlashgan muloqotga o'tishi axborotlar ko'laming kengayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun axborotlar almashinish jarayoni ham jadallahmoqda. Ikkinci sabab shundaki, ishchi-xodimlarning ixtisoslashuvi ularning kasbiy faoliyatning turli sohalariga bandliklari

o‘z maqsadlariga erishish uchun birlashish va hamkorlikka kirishishlarini taqozo qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, o‘zaro axborot almashishga xizmat qiladigan texnik vositalarning miqdori va ko‘lami kengaymoqda. Jumladan, elektron manzillar, internet saytlari, fakslar, mobil telefonlar bunga misol bo‘la oladi. O‘ta muhim sabablardan yana biri shuki, ijtimoiy rivojlanish va fan-texnika taraqqiyoti bizni muloqot ko‘laming kengayishi va rivojlanishi haqida o‘ylashga majbur qilmoqda. Shuning uchun o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish muammosi o‘z tadqiqini kutmoqda. Bu o‘quv mehnati faoliyati bilan band bo‘lgan yoshlarning o‘zaro muloqotidir.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O‘zbek xalqining buyuk mutaffakkirlari asrlar davomida insoniy fazilatlar, shuningdek sharqona muomala odobi haqida o‘z qarashlarini bayon qilib kelganlar. Jumladan, Qurboni Karim, Hadis Shariflar, xalq og‘zaki ijodi namunalari, hikmatli so‘zlar, pand-nasihatlar, Abu Rayhon Beruniy, A.Navoiy, Az-Zamaxshariy, Zayniddin Vosifiy, Husayn Voiz Koshifiy, Bahouddin Naqshband, Nizom mul Mulk, Mirzo Ulug‘bek, Zaxriddin Muhammad Bobur, Abulg‘ozzi Bahodirxonlarning asarlarida muloqot odobi va muomala san’ati haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

«So‘z-tabiat yaratgan mo‘jiza, uni to‘g‘ri yozish, to‘g‘ri talaffuz qilish va undan yaxshilik uchun foydalanish dono kishilarning ishi»dir, deb ta’kidlaydi mutaffakkir Abu Rayhon Beruniy.

Hazrat A.Navoiy muloqot yo‘li bilan turli shaxslar va guruhlar orasidagi nizolarni tinchitib, ularni yakdil qilganlari tarixdan ma’lum. Ulug‘ mutaffakkirning:

*«Asli maqsud soridur yo‘l suhbat,  
Farxunda kishiki, topqay o‘shal suhbat  
Yaxshi kishilar birla tutar bo‘l suhbat,  
To bergay amon sharirdin ul suhbat»*

Uning sharhi quyidagicha: Suhbat aslida maqsadga olib boradigan yo‘l hisoblanadi. Bunday suhbatga baxtli kishi tuyassar bo‘ladi. Yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo‘l, bu seni har qanday yomonliklardan asraydi. (A.Navoiy. Hikmatlar. T.: Sharq, 2006 y. 18-19-betlar). Allomaning bu kabi purma’no hikmatlari o‘quvchilarda muloqot madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirishda qimmatli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabda o‘quvchilar nutqini rivojlantirish va ularni ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda R.G‘.Safarova, H.Nazarova, N.O‘rinova, F.Aminova, M.Saidov,

M.Rixsieva, G.Ne'matova, M.Mirtojiev, A.F.Muhiddinov, A.G'ulomov va boshqalar samarali tadqiqot ishlari olib borganlar.

Mazkur masalaning ayrim jihatlari rus olimlari tomonidan ham tadqiq qilingan. A. V.Molojavenko, L. N.Kulikova, A.V.Mudrik, N.B.Shumakova, O.V.Nikonova, V.N.Myasiщев, Ye.G.Shubnikova, A.S.Granitskaya, A.N.Vasil'eva, D.Antonov, O.L.Belova, M.A.Chernышева, A.P.Ershova, V.M.Bukatov, L.A.Petrovskaya, I.P.Shkuratova, A.A.Kidron kabilarning ishlari shular jumlasidandir.

Mavjud nazariy yondashuvlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek maktablarining 5-9-sinflarida o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari alohida tadqiq etilmagan. Bu sohada muayyan ilmiy yondashuvlar va ishlanmalar mavjud emas.

L.N.Kulikova, A.V.Molojavenko, V.N.Myasiщевlar o'z ishlarida muloqotning o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyatiga katta baho bergenlar. Psixologlar shaxsning muloqot imkoniyatini aniqlash maqsadida quyidagi savollar bilan murojaat qilganlar. «Nima uchun muloqot qilish kerak?». Mazkur savolga quyidagicha javob olganlar: «muloqot kishilar orasida umumiylilikni tarkib toptiradi, ularning birgalikdagi faoliyatini boshqaradi, bilish usuli sifatida namoyon bo'ladi, alohida shaxslarni bilish asosi sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa muloqot, shaxsning o'z-o'zini aniqlashiga xizmat qilib, uning hamkorlikdagi faoliyatga kirishishini ta'minlaydi va muloqot sub'ektlari orasida o'zaro hamkorlik muhitini vujudga keltiradi».

Nima uchun muloqotga kirishish kerak, degan savolga javob berishdan avval biz muloqotga jalb qiladigan odatlar, ehtiyojlar, ko'nikmalar mavjudligini unutmasligimiz lozim. Turli umumiylikka uyg'unlashar ekan inson bu jarayonda u muloqotning ob'ekti va sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Muloqot jarayonida shaxs o'zida atrofdagilarning muayyan ta'sirini his etadi. O'z navbatida uning o'zi ham muloqot jarayonida ularga muayyan ta'sir ko'rsatadi.

## NATIJALAR

O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish bugungi kunda o'quvchilarning diqqat markazida turishi kerak. Bu masalani muvaffaqiyatli yechish uchun o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini jadallashtiradigan usullardan fooydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu usullar nihoyatda keng va turli-tumandir. Bular jumlasiga birinchi navbatda muammoli-kommunikativ topshiriqlar, bilish-tadqiqotchilik loyihalari, o'quv munozaralari va dialoglarni kiritish mumkin.

O'quvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantirishda didaktik o'yinlar ham alohida o'rin egallaydi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantirishda mazkur usullardan yetarlicha

foydalanimayapti. Mazkur metodlarni ta’lim jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Bu o‘z navbatida axborot ko‘lamining kengayishi va ta’lim jarayonini o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirish bilan bog‘liq vazifalar ko‘lamining kengayganligi bilan izohlanadi. Bu o‘rinda o‘qituvchidan nafaqat o‘quvchilarda muloqot qilish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish talab etiladi, balki ulardan ijodiy foydalanishni o‘quvchilar o‘rganishlariga bo‘lgan ehtiyojni ham tarkib toptirish zaruriyati ham mavjud.

Tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan o‘yin darsidan ham foydalandik. Bu darsning maqsadi o‘quvchilarda muloqot madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yin, o‘yinga asoslangan didaktik vaziyatlarning ahamiyatini ochib berishdan iborat. Dars mavzusi muayyan maqsadga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlidir. Bunday didaktik vaziyatni biz 5-6-sinf o‘quvchilari bilan tashkil qildik.

Ma’lumki,o‘quvchilarda muloqot madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yinga asoslangan didaktik vaziyatlar muhim o‘rin egallaydi. Chunki, o‘yinlarda tasodifiy holatlar bo‘lmaydi.U barcha xalqlarning madaniy-ma’naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yinlar inson tabiatni, turmush tarzi va boshqa xarakterli jihatlarining ob’ektiv holatini o‘zida mujassamlashtiradi. U ishtirokchilar timsolida xulq-atvorning yuksak shakllarini namoyon qiladi. Shu bilan bir qatorda, ular xulq-atvor bilan bog‘liq murakkab vazifalarni yechish imkonini ham beradi. O‘yin o‘z ishtirokchilarida muayyan bosim, o‘tkir zehnlilik, topqirlilik, birgalikdagagi uyg‘unlashgan harakatlar va kuch-quvvatni talab qiladi.

O‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda teatrlashtirilgan darslardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda teatrlashirilgan darslardan foydalanishning samaradorligi quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- Teatrga bo‘lgan qiziqishning asosiy ko‘lami va yo‘nalishi har doim insoniy hamda inson va olam munosabatlari asosida qurilganligidadir. Chunki, xuddi mana shu asosni o‘yin tarzida sahma asarlari orqali anglash mumkin. O‘z kasbiy faoliyati taqozosi bilan o‘qituvchi har doim o‘zaro aloqalar va hamkorlik muhitida ishlaydi. U goh o‘quvchilar bilan, goh hamkasblari bilan ishchan muloqot o‘rnatadi. Shu bilan bir qatorda, u dars beradigan o‘quv predmeti mazmunida o‘zaro hamkorlikka asoslangan tadqiqotlarning natijalari namoyon bo‘ladi. Bu munosabatlar ayniqsa badiiy asar qahramonlari misolida yaqqol ifodalananadi;

- O‘qituvchilik bilan aktyorlik kasbi orasida juda ko‘plab o‘xshash jihatlar mavjud. Ochiqlik o‘qituvchilik hamda aktyorlik faoliyatining mazmunini ifodalovchi vaziyatlardir. Aktyor singari o‘qituvchi ham jarayon sub’ektlarining hissiyotlari va aql-

idrokiga ta'sir ko'rsatadi. Ishontirish, o'qituvchining aktyorlik mahorati, faoliyati uning o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish sohasidagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. O'qituvchi o'quv jarayonida rejissyor singari o'quvchilarga yorqin, hissiy ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi uchun o'quv jarayoni mantig'ini qurish nihoyatda muhim hisoblanadi. Bu mantiq o'quvchining o'quv jarayonini tushunishi va idrok etishi uchun qulay bo'lishi lozim. Sahna asari ham muayyan mantiq asosida quriladi. O'qituvchi o'quvchilarning muloqot madaniyatini samarali shakllantirish uchun muntazam tarzda bo'lib o'tgan voqealarga oid suhbatlar, muloqot madaniyatiga oid disputlarni tashkil etishi lozim. Bu jarayonda o'quvchilar qanday muloqot qilish kerakligi, muloqotdoshi bilan o'zaro munosabatlari, unga hurmat bilan qarash zarurligi, muloqot mavzusi, bu jarayonda o'zlarini qanday tutishlari kerakligini bilib olishlari kerak.

Dastlabki farazlarimiz sifatida o'quv jarayoni va shaxsning muloqotga kirishuvchanligi o'zaro aloqador hodisalardir, degan fikr ilgari surildi. Birinchi talab o'quvchilardagi muloqotga kirishuvchanlik ko'nikmalarini aniqlashdan iborat edi.

O'yinlarning o'ziga xos jihatlaridan biri – barcha ishtirokchilarning o'yin qoidalari va shartlarida bo'ysunishi zarurligidadir. Bu o'quvchilarda o'ziga xos xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish imkonini beradi. Birinchi navbatda o'yin yordamida o'quvchilarda ongli, aql-idrokka asoslangan xulq-atvor ko'nikmalari tarkib topadi.

## MUHOKAMA

O'yin vaziyatlarini shunday tashkil qilish kerakki, bu jarayon o'quvchilarning uzoq vaqt asosiy didaktik maqsaddan yiroqlashishi va chalg'ishiga imkon bermasin. Qiziqarli faoliyat, qiziqarli didaktik jarayonda o'quvchilar alohida qoniqish bilan uzoq vaqt shug'ullanadilar. O'quvchilarning jadal bilish faoliyatları – darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi, ularning diqqatlarini bir nuqtaga jamlashlariga ko'maklashadi.

O'yinni didaktik vosita sifatida qarash quyidagilarni asoslash imkonini beradi:

1) didaktik o'yinlar o'quvchilarda bilish qiziqishlarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida ular faoliyatini jadallashtiradi;

2) o'yin materiallarining o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, uni to'g'ri tashkil etish xotirani mashqlantiradi, nutqiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga ko'maklashadi;

3) didaktik o'yinlar o'quvchilarning aqliy faoliyatini barqarorlashtirib, diqqatlarini rivojlantiradi hamda voqealarning bilishga nisbatan qiziqishlarini tarkib toptiradi;

4) didaktik o‘yinlar o‘quvchilardagi sustlik va loqaydlikni bartaraf etishning muhim usullaridan biri hisoblanadi;

5) o‘yin jarayonida komanda tarkibidagi har bir o‘quvchi butun jamoaning muvaffaqiyati uchun mas’uliyatni his etadi, chunki, har bir o‘quvchi o‘z komandasining yaxshi natijaga erishishidan manfaatdor, shuning uchun ham, ular topshiriqlarni tez va muvaffaqiyatli bajarishga intiladilar.

Amalga oshirilgan didaktik tadbirlarning natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarda muloqot madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonida ularda muloqot madaniyati ko‘nikmalari muayyan darajada oshganligiga ishonch hosil qildik.

## XULOSA

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning o‘z tengdoshlari bilan amalga oshiradigan muloqotlari ularning o‘quv hamda ijtimoiy faoliyatlarida alohida ahamiyatga ega. O‘quvchilarning kattalar bilan muloqotlari tengdoshlari bilan amalga oshiradigan muloqot o‘rnini bosolmaydi. Sinfdoshlari bilan amalga oshadigan muloqot o‘quvchi hayotida markaziy o‘rinni egallaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchining o‘quv faoliyati va xulq-atvorining asosiy jihatlarini belgilaydi. O‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda o‘ziga xos ish shakllari va metodlaridan foydalanish natjasidagina kutilgan samaradorlikka erishish mumkin.

O‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda ko‘plab metodlar bilan bir qatorda, savol-javob, suhbat hamda trening metodlari muhim ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 –T., -T.: “Fan” 1995, 572 bet.
2. Muhiddinov A.F. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. T.: O‘qituvchi , 1995, 78-b
3. Nikanova O. V. Formirovaniye kulturi obsheniya mladshix shkolnikov: Avtoref. dis. ... kand. ped. nauk. □ Bryansk. 2001. □ 18 s.
4. Saidov M. O‘zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta’limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped.fan.nomz. disser. T.: 1993. 123-b.